



BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI TAVSIFI

Bo'riyeva G. I.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: kompetentlik, pedagogik omillar, jismoniy tarbiya, malaka, kasbiy mahorat, motivatsiya.

Ключевые слова: компетентность, педагогические факторы, физическое воспитание, умения, профессиональные навыки, мотивация.

Key words: competence, pedagogical factors, physical education, skills, professional skills, motivation.

Kirish. “Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda yangi yo’l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik” ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va xarakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o’rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi.

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Kasbiy kompetentlik —mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyatda yuqori darajada qo‘lay olinishi.

Kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z o‘zini baholash orqali aniqlanadi. Tarbiyachi o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:

1. O‘z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
2. Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarini bartaraf etish;
3. Amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo‘llarini izlash;
4. Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish;
5. Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish.

Bugungi kunda yurtimizda faol intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Mana shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” degan fikrlari ham vatanimiz yoshlarini erkin fikrlashini tarkib toptirishga qaratilayotganligi etibordan holi emas. Shunday ekan biz o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllanganligi o‘quvchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash sohasidagi inovatsion metodika va texnologiyalarni qo‘llay olish malakasi bilan belgilanadi. Kasbiy kompetentsiz pedagogning kasbiy o‘shishi, o‘quvchilar salomatlik darajasini mustahkamlanishi, ta’lim



oluvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga mativatsiyani rivojlantirish mumkin emasligi amalda o'z isbotini topgan. Kasbiy kompetentlik mutahasis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrative bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutahasislik bilimlarini doimo boyitib borishni yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta izlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqazo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi hollarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- Murrakkab jarayonlarda
- Noaniq vazifalarni bajarishda
- Bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda
- Kutilmagan vaziyatlarda harakatrejasiga ega bo'la olishda.

A.A.Derkach tomonidan kasbiy muloqotdagi kompetentlikning

- kommunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobiliyati)
- ijtimoiy -perseptiv kompetentlik (boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobiliyati)
- diagnostik kompetentlik (boshqa kishilarga hos bo'lgan xususiyatlarni o'rganish qobiliyati)
- axloqiy kompetentlik (shu kasb talab etadigan odob -axloq normalariga rioya qilish)
- empatik kompetentlik (jamo a'zolariga hamdard bo'la olish, ularni to'g'ri tushunish va boshqa qismlari ajratib ko'rsatilgan).

Shuni aytish joizki shaxsga ta'lim va tarbiya berishda nafaqat talim oluvchiga ta'limning yo'naltirilishi, balki o'qituvchining pedagogik faoliyatiga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida etibor berish talab etiladi. Jismoniy tarbiya va boshqa soha o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta'limda juda ko'p tub o'zgarishlarni amalga oshirish kerak.

Natijalar va muhokamalar. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida "qobiliyat" tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatdir. Qobiliyatli pedagoglarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham ko'zga tashlanadi; - bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni



bajara olish (eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.); - atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (bir talabning ma'ruzasini eshitgani holda, boshqa talabalarning faoliyatlarini kuzata olish); - o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ular eng ahamiyatsiz, e'tiborga tashlanmaydigan bo'lsada) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish); - miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya deyarli to'xtovsiz faoliyat ko'rsatib, nihoyatda kam vaqt "dam oladi", bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi; uyquchanlik qobiliyatli pedagoglarga xos xususiyat emas); - nutqi va fantaziyasining boyligi (qobiliyatli o'qituvchilarning aksariyati nihoyatda boy nutqqa ega, ularda fantaziya (tasavvur qilish) qobiliyati beqiyos darajada kuchli); - kuchli xotira (yirik hajmdagi matnni, m:dostonlarni bir marta o'qish bilan to'laligiga yodlab olib, uni so'zmaso'z qayta hikoya qilib berish qobiliyati)ga egalik. Zamonaviy sharoitda o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi, o'z ustida izchil ishlashi, kun sayin yangilanib borayotgan bilimlarni o'zlashtirishga intilishi, o'quv axborotlarini talabalarga qiziqarli tarzda yetkazib berish uchun mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga ijodiy yondasha olishi talab etilmoqda. Kasbiy kompetentlik – ko'p qirrali va ko'p jihatli tushuncha, u jamiyatda sodir bo'luvchi o'zgarishlarga mos ravishda o'zgaradi hamda turli nuqtayi nazarlar ostida ko'riladi. O'qituvchining "kasbiy kompetentligi" tushunchasi mazmuniga zamonaviy yondashuvlar tahlili ko'rsatishicha, mazkur muammo hozirgi vaqtda uning talqiniga turlicha mazmun baxsh etuvchi, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ye.V. Bondarevskaya kasbiy kompetentlik tushunchasini uning asosiy komponenti hisoblangan, "ta'limda hunarmandni" emas, balki yuqori madaniyatli mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan "pedagogik madaniyat" tushunchasi bilan bog'laydi. Tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kompetentsiyaning turli ta'lim yo'nalishlarida turli jihatdan tahlil qilishgan. N.A.Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentliklarini shakllantirishda tayanch, umumiy va maxsus kompetentlik darajalarini shakllantirish muhimligini aniqlagan [3.78]. Tayanch kompetentlikliklar – ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni nihoyasida ega bo'lgan barcha tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalaridir. Xulq-atvori va fikrlashi keng ma'nodagi "kompetentlik" tushunchasiga kiritiladi. Ta'lim jarayonining maqsadi ta'lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish hisoblanadi. S.Ya.



Batishev va B.S. Gershunskiy kasbiy kompetentlikni “savodxonlik kasbiy kompetentlik – madaniyat - mentalitet” umumiy bo‘g‘inidagi ta’lim natijasi sifatida qaraydi. B.S. Gershunskiyning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlik kasbiy bilimlar, fanni o‘zlashtirish ko‘nikmalari va ularni faoliyatda amalga oshirish malakalarining shakllanganligining ma’lum darajasi, sifat va natijaviy ko‘rsatkichini aks ettiradi. Uning yozishicha, kasbiy kompetentlik, asosiy ravishda kasbiy ta’limining darajasi, insonning tajribasi va individual qobiliyatlari, uning uzluksiz mustaqil ta’limga va o‘z-o‘zini takomillashtirishga motivli intilishi, ishga ijodiy va mas’uliyatli munosabati bilan aniqlanadi. U kasbiy kompetentlik funksional savodxonlikdan tashqari, fan mazmunidan ko‘ra shaxsning shakllantiriladigan sifatlari: mas’uliyat, ijod, qiziquvchanlik, tirishqoqlik, yangi bilimlarni egallashga intilish, haqiqatni estetik idrok etish, o‘z ishining haqiqiy professionalini tasavvur etib bo‘lmaydigan yuqori axloqiylikni ajratadi. Kasbiy kompetentlik o‘z ichida falsafiy, psixologik, ijtimoiy, madaniy, shaxsiy tartibdagi jihatlarni qamrab oluvchi tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Suningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin, bo‘ljak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishimiz uchun mutahassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishlari uchun zamonaviy ta’lim metodlarini o‘z o‘rnida va vaqtida qo‘llay olishimiz zarur.

Adabiyotlar:

1. Большакова З.М., Тулькибаева Н.Н. Компетенции и компетентность // Вестник ЮУрГУ. - 2009.
2. Muslimov N.A. Kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.
3. Kushvaktov N.X. O‘quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o‘rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.
4. Булавенко О.А. Характеристики компетентности специалиста // Проф. образование. - 2005.
5. G‘ulomov. X.R. Raimov. va boshqalar. “Ta’lim-tarbiya sifati va qirralari”. T; «Fan va texnologiyalar». 2004.



6. www.ziynet.uz
7. www.edu.uz
8. www.uzedu.uz

РЕЗЮМЕ

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ilmiy faoliyati davomida alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan jihatlari va qay tarzda yondashishi zarurligi innovatsion va texnologik faoliyatni tashkil qilish xususida so'z yuritilgan. O'qituvchining malakasi va kasbiy mahoratini oshirish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri ekanligi yoritib berilgan. Mavjud ta'lim tizimi doirasida o'qituvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish o'zgarishlar orqali kerakli natijalarga erishish mumkinligi isbotlab ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

Обсуждаются аспекты, на которые будущим учителям физического воспитания следует обратить особое внимание в ходе своей научной деятельности и как им следует подходить к организации инновационно-технологической деятельности. Пояснено, что повышение квалификации и профессионального мастерства учителя является одним из важных условий повышения качества образования. Доказано, что достичь желаемых результатов можно за счет изменений в развитии профессионального мастерства учителей в рамках существующей системы образования.

SUMMARY

The aspects that future physical education teachers should pay special attention to during their scientific activities and how they should approach the organization of innovative and technological activities are discussed. It is explained that improving the teacher's qualifications and professional skills is one of the important conditions for improving the quality of education. It has been proven that it is possible to achieve the desired results through changes in the development of teachers' professional skills within the framework of the existing education system.